O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK:658 (575.1)

ESHQUVATOVA E’ZOZA ASLONQUL QIZI

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV KONSULTANT FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING USLUBIY ASOSLARI

70411601–Korporativ boshqaruv

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.f.d., dots. D. Fayziyeva

Toshkent-2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Innovatsion menejment” kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar _____ **i.f.f.d., dots. D. Fayziyeva**

Kafedra mudiri _____ **i.f.f.d., prof. B.Urinov**

Kechki ta’lim va magistratura

fakulteti dekani _____ **i.f.d., prof. J.Karimqulov**

Men, _____

(F.I.Sh.)

ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko‘chirmachilik holati yo‘qligiga javob beraman. Ko‘chirmachilikka yo‘l qo‘yilgan holatida magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va “qoniqarsiz” baho qo‘yilishidan xabardorman.

_____ ____ _____ _____

(talabaning imzosi) (kun) (oy) (yil)

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI DASTLABKI HIMOYASI
__1__ - SONLI BAYONNOMASI

2025 yil "__16__" may

Kechki ta'lim va magistratura fakulteti 2-kurs _____
"Korporativ boshqaruv"
mutaxasisligi MKB-01-guruh talabasi Eshquvatova Ziroza Aslonqul qizi ning
"Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ konsultant faoliyatini samarali tashkil etishning uslubiy asoslari"
mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi natijalariga ko'ra quyidagi kamchiliklar qayd etildi:

1. Dissertatsiya ishida orfografik xatolar mavjud.
2. Jadval va rasmlar talab darajasida rasmiylashtirilmagan.

Magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan xulosa (KIMKda himoyaga **tavsiya etiladi/tavsiya etilmaydi)** _____

Komissiya raisi: B. N. Umrzoq – kafedra mudiri

Komissiya a'zolari: A. R. Ismailov – dotsent

M. R. Xidirova – dotsent

D. Sh. Fayziyeva – dotsent

N. Rasafarova – kotib

Izoh: Dastlabki himoyaga kirishda talabaning magistrlik dissertatsiyasi, plagiatga tekshirilganligi, ilmiy rahbar xulosasi, ichki taqrizchilarning taqrizlari, kamida 2 ta ilmiy maqola va tezis nusxalari bo'lishi talab etiladi.

ANNOTATSIYA

Mazkur dissertatsiya ishida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishda korporativ konsultant (korporativ konsultant) faoliyatining o'rni va ahamiyati, uni samarali tashkil etishning ilmiy-uslubiy asoslari tahlil qilingan. Bugungi kunda korporativ boshqaruv tamoyillarini amaliyotga joriy etishda korporativ konsultant xizmatlari muhim rol o'ynab, tashkilotlarning strategik qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot davomida korporativ konsultant faoliyatining nazariy asoslari, xorijiy va mahalliy tajribalari o'rganilib, ularning korporativ boshqaruv tizimiga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot ob'ekti sifatida O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari, xususan "O'zsanoatqurilishbank" ATB tanlandi. Tadqiqot davomida ushbu korxona boshqaruvidagi mavjud muammolar, korporativ konsultant xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj va talablar aniqlanib, ular asosida amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiya doirasida so'rovnoma, intervyu, diagnostik tahlil, SWOT-tahlil, tarkibiy-funksional tahlil kabi zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot natijasida korporativ boshqaruvda konsultant faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan model va baholash mezonlari taklif etildi.

Ish natijalari asosida O'zbekiston sharoitida aksiyadorlik jamiyatlari uchun mo'ljallangan, korporativ boshqaruv tizimida korporativ konsultant xizmatlarining roli va samaradorligini oshirishga qaratilgan nazariy hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ular boshqaruv tizimini takomillashtirish va strategik rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Tayanch iboralar: Korporativ boshqaruv tizim, korporativ konsultant (korporativ konsultant), korporativ konsultant xizmatlari, strategik qarorlar qabul qilish, ilmiy-uslubiy asoslar, xorijiy va mahalliy tajriba, SWOT-tahlil, diagnostik tahlil, aksiyadorlik jamiyati, model va baholash mezonlari, boshqaruv tizimini takomillashtirish, strategik rivojlanish.

ANNOTATION

This dissertation analyzes the role and significance of corporate consultants in improving the corporate governance system in joint-stock companies, as well as the scientific and methodological foundations for organizing their activities effectively. Today, corporate consultant services play a crucial role in implementing corporate governance principles in practice and serve as an important tool for increasing the effectiveness of strategic decision-making within organizations. The study explores the theoretical foundations of corporate consultancy, examines both foreign and domestic experiences, and analyzes their impact on the corporate governance system.

The research focuses on joint-stock companies operating in Uzbekistan, in particular the Joint-Stock Commercial Bank "O‘zsanoatqurilishbank". During the study, existing management issues, the need for and demand for corporate consulting services were identified, and practical proposals were developed based on these findings.

Modern scientific and methodological approaches such as surveys, interviews, diagnostic analysis, SWOT analysis, and structural-functional analysis were applied in the research. As a result, a model and evaluation criteria aimed at increasing the efficiency of corporate consulting in governance were proposed.

Based on the findings, theoretical and practical recommendations were developed to enhance the role and effectiveness of corporate consulting services in the corporate governance system of joint-stock companies under the conditions of Uzbekistan. These recommendations are of great importance in improving the governance system and ensuring strategic development.

Key words: Corporate governance system, corporate consultant, corporate consulting services, strategic decision-making, scientific-methodological foundations, foreign and local experience, SWOT analysis, diagnostic analysis, joint-stock company, model and evaluation criteria, governance system improvement, strategic development.

MUNDARIJA

KIRISH		**3**
I BOB.	**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV KONSULTANT FAOLIYATINING ILMIY ASOSLARI**	**11**
1.1.	Korporativ konsultant tushunchasi, mazmuni va vazifalari	11
1.2.	Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ konsultant faoliyatining nazariy asoslari	17
1.3.	Korporativ konsultant faoliyatini tashkil etishda ilg‘or xorijiy tajribalar	21
	1 – bob bo‘yicha xulosalar	27
II BOB.	**O‘ZBEKISTON AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV KONSULTANT FAOLIYATINING AMALIY HOLATINI TAHLIL QILISH**	**29**
2.1.	O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarining rivojlanish holati va boshqaruv tizimi xususiyatlari	29
2.2.	Korporativ konsultant xizmatlarining joriy etilishi va amaliy natijalari	35
2.3.	“O‘zsanoatqurilishbank” ATB misolida korporativ konsultant faoliyatining amaliy tahlili	41
	2 – bob bo‘yicha xulosalar	53
III BOB.	**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV KONSULTANT FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING ILMIY VA AMALIY YO‘NALISHLARI**	**55**
3.1.	Korporativ konsultant xizmatlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlar	55
3.2.	Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ konsultant faoliyatining samaradorligini oshirish mexanizmlari	59
3.3.	Tadqiqot natijasida keltirilgan asosiy tavsiya va takliflar	63
	3 – bob bo‘yicha xulosalar	68
	XULOSA	**70**
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	**73**

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi: Hozirgi iqtisodiy munosabatlar tizimida korporativ boshqaruvning samarali tashkil etilishi korxonalarning raqobatbardoshligi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyati (AJ) shaklida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun korporativ boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, boshqaruv organlarining mas'uliyatini oshirish, strategik rejalashtirish va nazorat kuchaytirish dolzarb masalaga aylangan.

Globallashuv sharoitida AJ korxonalarida nafaqat yirik kompaniyalar, balki o'rta va kichik biznes subyektlari ham o'z faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, global tendensiyalar bilan uyg'unlashish hamda uzoq muddatli barqarorlikka erishish uchun malakali, strategik fikrlovchi korporativ konsultantlarga tayanishga ehtiyoj sezmoqda. Shu sababdan ham, korporativ konsultantlarning ahamiyati tobora ortmoqda. Korporativ konsultantlar korxonalarning boshqaruv tizimini tahlil qilish, muammoli holatlarni aniqlash, tavakkalchiliklarni boshqarish va istiqbolli boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda yuqori malakali ko'mak beradi. Ayniqsa, tashqi ekspert sifatida ularning jalb qilinishi AJ korxonalarining boshqaruv tizimida xolis va mustaqil baholash imkoniyatini yaratadi, bu esa korxona faoliyatining shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, korporativ konsultantlar strategik rejalashtirish, risklarni boshqarish, raqamli transformatsiya va ESG tamoyillarini tatbiq etishda tashkilotlar uchun muhim hamkor hisoblanadi.

Bundan tashqari, korporativ konsultantlarning faoliyati korxona ichki jarayonlarini optimallashtirish, moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, innovatsion boshqaruv yondashuvlarini joriy etish orqali tashkilotlarning bozor talablariga moslashuvchanligini sezilarli darajada oshiradi. Bugungi amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, korporativ konsultantlarsiz yirik AJ korxonalari samarali strategik qarorlar qabul qilish, moliyaviy risklarni kamaytirish va raqobatchilar bilan kurashishda yetarli natijaga erisha olmayapti. Shu sababli korporativ korporativ konsultant xizmatlarini chuqur o'rganish, ularning uslubiy asoslarini ishlab chiqish muhim zaruratga aylangan.